



IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI "LX-280-T" RUSUMLI YASSI IKKI IGNADONLI TRIKOTAJ TO'QUV MASHINASIDA OLIISH TAXLILI

I.I.Kamolova

Mustaqil izlanuvchi


Namangan to'qimachilik instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14233644>

Annotatsiya: Ikki qatlamli trikotajda qatlamlarni biriktirilishi asosiy yoki qo'shimcha iplar yordamida amalga oshirish. Xomashyo sarfini kamaytirish maqsadida trikotajning teskari yuzasini yetarli darajada to'ldirish uchun past navli tabiiy kalava iplardan foydalanish tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Bir qavatli to'qima, ip, chiziqli zichligi, biriktiruvchi ip, trikotaj zichligi, "LX-280-T" rusumidagi yassi ikki ignadonli zamonaviy trikotaj to'quv mashinasi.

Bir qavatli to'qimani qo'shimcha iplar bilan biriktirish mazkur guruhdagi trikotajning barcha strukturasi uchun xos bo'lib, ular shunday to'qiladiki, bunda iplar trikotaj yuzasiga chiqmagan holda, old va orqa tomoni bo'yicha barcha yoki ba'zi bir halqa protyajkasi ustida press yarim halqa tashlanmasi ko'rinishida joylashadi. Shu bilan bog'liq bo'lgan holda, old va orqa qatlamlarni to'qish uchun qo'llaniladigan iplardan tola trkibi, fizik-mexanik ko'rsatkichlari, chiziqli zichligi, rangi bo'yicha farq qiluvchi qo'shimcha biriktiruvchi ip sifatida foydalanish imkoni ham mavjud. Buning evaziga trikotajning parametrlari, xususiyatlari va tashqi ko'rinishi yaxshilanadi. Biriktiruvchi ip sifatida, to'qima tarkibi turiga bog'liq bo'lmagan yuqori kirishuvchan ipdan foydalanish hisobiga, trikotaj zichligini oshirishga, uning issiqlik saqlash xususiyatini va relyefli ko'rinishini yaxshilashga erishish mumkin. Ingichka biriktiruvchi iplarni qo'llash hisobiga trikotajni yuza to'ldirilishini oshirishga ham erishish mumkin bo'ladi. Modomiki, biriktiruvchi ip halqa bilan birga to'qilmas ekan, u holda asos ipi sifatida arzonroq, kam pishitilgan, anchagina qalinroq kalava ipdan foydalanish ham mumkin. Biriktiruvchi iplarni qisqaruvchanligini oshirish hisobiga qatlamlar orasidagi masofani oshirish mumkin, buning natijasida qalin mato olinishiga erishiladi. To'qima qo'shimcha iplar bilan biriktirilganligi tufayli, asosiy ipdan foydalanib biriktirish usuli bilan olingan ikki qatlamli trikotaj uchun sarflanadigan kalava ipga nisbatan, asosiy kalava ip sarfi kam bo'ladi. Buning natijasida trikotajni old va orqa tomonlari parametrlarini o'zgartirish mumkin, bu ikki qatlamli trikotajning optimal parametr-larini olishda juda muhim ahamiyatga ega [1]. Biriktiruvchi iplarda nisbiy qisqarish kam bo'lganligi sababli









trikotajning eni bo'yicha cho'ziluvchanligini anchagina chegaralash mumkin. Agar trikotaj struktu-rasiga qandaydir yangi iplar yoki halqa tuzilishiga o'xshash elementlar kiritilsa, trikotajning xususiyati va parametrlarini o'zgarishi bizga ma'lum.

Xitoyning "LONG XING" firmasida ishlab chiqarilgan "LX-280-T" rusumidagi yassi ikki ignadonli zamonaviy trikotaj to'quv mashina-sining texnologik imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, to'qima tarkibidagi iplarini miqdorini trikotaj to'qimasini texnologik parametrlariga va fizik - mexanik xususiyatlariga ta'sirini tadqiqotlash hamda ikki qatlam-li trikotaj to'qima turlarini kengaytirish maqsadida, ikki qatlamli trikotaj to'qimasining 6 ta variantini tuzilishi va olish usullari ishlab chiqildi. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasini yangi tuzilishini yaratishda, mavjud bo'lgan ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining tuzilishlari va "LX-280-T" rusumidagi yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinaning texnologik imkoniyatlari taxlil qilib chiqildi. To'qimani bog'lovchi birikmalari bo'yicha ikki qatlamli trikotajni bir nechta asosiy guruhga ajratish mumkin: ikkita bosh to'qima (ko'ndalangiga yoki bo'ylamasiga to'qilgan) biriktirib to'qilgan, hosilali to'qimalar, naqshli to'qilgan to'qimalar, hosila va naqshli to'qilgan trikotaj to'qimalari. Biriktiruvchi elementlarni hosil qilish usuli bo'yicha ikki qatlamli trikotaj to'rtta kichik guruhlarga bo'linadi: futer usulida biriktirish (F), press usulida biriktirish (Pr), arqoqli usulda biriktirish (A), qoplama usulda biriktirish (Q). Yangi tuzilishli, shakl saqlovchi ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini tuzilishini yaratishda biriktirishning press usulidan foy-dalanildi. Taklif qilinayotgan ikki qatlamli trikotaj to'qimalari "LX-280-T" rusumidagi yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasida quyida nomlari keltirilgan xomashyolardan foydalanib ishlab chiqarilgan [2].

Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarishda chiziqli zichligi 20 teks paxta kalava ipidan va haqiqiy chiziqli zichligi 16,7 teksli ipak kalava iplaridan foydalanib ikki qatlamli trikotajni 6 hil varianti ishlab chiqarilgan. Bu ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini ikki hil iplardan foydalanib ishlab chiqarishdan maqsad, ikki qatlamli trikotajni eni va bo'yi bo'yicha pishiqligi va shakl saqlash xususiyatlariga paxta va ipak iplarini chiziqliy zichliklarini ta'sirini tahlil qilish hamda trikotajni shakl saqlash xususiyatlarini oshirish.





Рasm -1. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasining (a) tuzilishi va (b) gra

Yassi ikki ignadonli "LX-280-T" rusumli mashinada olingan ikki qatlamli trikotaj to'qimasining I - variantini tuzilishi va grafikli yozuvi 1 - rasmda keltirilgan bo'lib, uning to'qilishi quyidagicha amalga oshirilgan: - mashinaning karetkasi chapdan o'ngga harakatanganda to'qimaning I - birinchi halqa qatorini to'qishda oldi tomondagi ignadon toq ignalarida, ya'ni bitta igna tashlab, ketma-ket chiziqli zichligi 20 teks x 2 paxta kalava ipdan hosilali glad halqa qatorlari hosil qilingan. Mashina karetkasini o'ngdan chapga harakatlanishida hosilali glad to'qimasini II - ikkinchi halqa qatori to'qlgan. Mashina karetkasini chapdan o'ngga harakatlanishida to'qimani III - halqa qatori ort ignadonning toq ignalarida chiziqli zichligi 20 teks x 2 paxta ipidan hosilali glad halqa qatori to'qilsa, mashina karetkasini o'ngdan chapga harakatlanishida hosilali glad to'qimasini IV - halqa qatori ort ignadonning juft ignalarida hosilali glad halqa qatorlari to'qilgan.

To'qimaning rapportini eng oxirigi halqa qatorida hosilali glad qalqa qatorlarini birlashtirgan lastik halqa qatorlarini protyajkalari ustiga chiziqli zichligi 20 teks x 3 paxta ipli arqoq ipi, mashina karetkasini o'ngdan chapga harakatlanishi natijasida qo'yilgan. Natijada, "LX-280-T" rusumli yassi ikki ignadonli zamonaviy trikotaj to'quv mashinasining texnologik imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, mashinaning konstruktiv tuzilishiga hech qanday o'zgartirishlar kiritmasdan ikki qatlamli trikotaj to'qimasini beshinchi varianti to'qib olindi.



Xulosa

Olingan ikki qatlamli trikotaj to'qimalaridan ayollar, erkaklar va bolalar ustki va yengil ustki ikki qatlamli trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish, trikotaj mahsulotlari assortimentlari turlarini ko'payishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Mirusmanov B., Mukimov M.M. "Yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasi" Maqola. "O'ZBEKISTONDA FANLAR ARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR" //JURNALI. «BEST PUBLICATION» Ilm-ma'rifat markazi © MATERIALLARI TO'PLAMI 20-MAY, 2022-YIL . 8-SON O'ZBEKISTON. 2022.
2. Kamalova I.I., Mirusmanov B. "Yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasi". "Zamonaviy ta'lim tiimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar" mavzusidagi 34-sonli Respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi materiallari to'plami.15-aprel.2022y.

